

O'ZBEKISTON XALQI – VATANIMIZ FAXRI



Akmal, bugun xonangdan chiqmasdan biz o'stirgan gulni sinchiklab tomosha qilayotganingni kuzatdim.



Bilasanmi, Madina, maktabda mashhur o'zbekistonliklar haqida ma'lumot topishni so'rashgan edi. Men olimi Dilduza Rustamovna Egamberdiyeva bilan suhbatlashdim. U foydali mikroblar o'simliklarning o'sishiga qanday yordam berishi haqida biologiya sohasida olamshumul kashfiyot qilgan. Bu juda qiziq!



– **Dilduza Rustamovna, kashfiyotingizning muhimligini qanday izohlay olasiz?**

– Men tarkibida zararli kimyoviy moddalar bo'lmagan, ekologik toza sabzavot va mevalar yetishtirish texnologiyasini yaratdim. Bunday mahsulotlar bilan oziqlangan bolalar sog'lom o'sadi.

– Siz bunday bilimlarni qayerdan olasiz?

– Bilim olish va ilm-fanni egallash uchun chet tillarni bilish zarur. Dunyodagi har bir ilmiy kashfiyot haqidagi asosiy ma'lumotlar ingliz tilida beriladi. Biz har kuni e'lon qilinadigan ilm-fan yangiliklari bilan tanishib, bilimlarimizni boyitib boramiz.

– Olim bo'lish uchun qancha o'qigansiz?

– Inson olim bo'lish uchun o'qimaydi. U bilim olish uchun o'qiydi. Inson olim bo'lganida esa, go'yo o'z iste'dodini ro'yobga chiqarib, sovrin olgandek bo'ladi.

– Yirik ilmiy kashfiyotlar qanday qilinadi?

– Kashfiyotlar bu dunyoni o'rganishga bo'lgan qiziqish, "Nega?" degan savolga javob izlash orqali amalga oshiriladi. Ilm-fanda ishga ijodiy yondashish juda muhim. Shu tariqa biz yangi narsa yaratamiz.

– Hayot yo'lini qanday tanlash kerak?

– Hayotda sizga eng ko'p quvonch keltiradigan narsa kasbingizga aylanishi mumkin. Chunki hayotimizning asosiy qismi ishda o'tadi. Agar kasbingizni sevsangiz, hayotingiz mazmunga to'ladi va maqsadlaringizga erishasiz.

– Nima uchun ilm-fanni tanlash kerak?

– Dunyo pandemiya xavfi, iqtisodiy inqiroz, qashshoqlik, iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik kabi global muammolar qarshisida turibdi. Bu muammolarni hal qilishning yagona yo'li – ilm-fan. Sayyoramizni asrash, farovon yashash va odamlarni toza havo, suv va oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun ilm-fan bilan shug'ullanish kerak. Ilm-fanga yo'l bolalikdan boshlanadi!



Dilfuza Rustamovna Egamberdiyeva,
biolog, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor,
Butunjahon fanlar akademiyasi a'zosi.



1. Akmal nima uchun biologiyaga qiziqib qoldi?
2. Intervyudagi qaysi savol sizga eng qiziqarli tuyuldi?
3. Dunyoga mashhur olim bo'lish uchun nima qilish kerak deb o'ylaysiz?



Qahramonlar hikoyasini kichik guruhlarda o'qib, muhokama qiling.

2021-yil 1-iyun kuni o'zbekistonlik **Sergey Denisenko** 8 849 metr balandlikdagi Everest cho'qqisiga O'zbekiston bayrog'ini o'rnatdi. Bu sayyoramizning eng baland nuqtasidir. Deyarli 2 oy davom etgan ekspeditsiya juda og'ir ob-havo sharoitida o'tdi. Keyinchalik alpinistga "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni berildi.



1



Suratni Sergey Denisenko taqdim etgan.



Bahodir Yo'ldoshev – o'zbekistonlik teatr va kino aktyori, taniqli teatr rejissori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi. Turli sanalarga bag'ishlangan bayram dasturlari va yirik madaniy tadbirlarning sahnalashtiruvchi rejissori bo'lgan. Ular orasida Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi, Amir Temurning 660 yilligi, "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali va boshqalar bor.

U ko'plab davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.



Matnlar yuzasidan bir nechta savol tuzib, sinfdoshlaringizdan so'rang.

